

HOZIRGI KUNDA SUV TA'MINOTIDAGI MUAMMOLAR

Mo'minov Islombek Ikromjon o'g'li

Farg'ona Politexnika instituti MKQ yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Bugun ushbu maqolada hozirgi vaqtdagi O'zbekiston va dunyoni qiy nab kelyotgan suv ta'minotidagi muammolarni sabablarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Suv ta'minoti, nasos stansiyalari, rekonstruksiya, filtratsiya, irrigatsiya tizimlari, suv xo'jaliklari.

Xalq xo'jaligining barcha sohalarida izchil va keng qamrovli islohotlarni amalga oshirayotgan yosh mustaqil davlatimizda aholi va ishlab chiqarishni suv bilan ta'minlash hamda shu bilan birga mavjud suv resurslaridan foydalanishni oqilonalashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan aholini ayniqsa qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash yo'lida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Tabiiy ravishda suv ta'minoti tizimlari kengayib, texnik jihatdan takomillashib shu bilan birga murakkablashib bormoqda. Yer osti va yer usti manbalaridan suv oluvchi inshootlar yiriklanib, suv tashish masofalari uzoqlashib, suv tozalash jarayonlari hamda inshootlari vujudga kelgan ekologik vaziyat va sharoitlar ta'sirida murakablashib bormoqda. Bunday sharoitlarda suv ta'minoti tizimlarini loyihalash, qurish va ishlatish texnologiyalarini takomillashtirish va ularning ish natijalarini talab darajasida bo'lishiga erishish,

Orol dengizi havzasi sharoitida yashovchi va o'z xalqining farovonligi yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirayotgan bizning mamlakatimiz uchun ham o'ta dolzarb va kun tartibining birinchi navbatida turgan vazifalardandir. Vaholanki, suv ta'minoti masalalari bilan jahondagi har bir davlat, ayniqsa, qurg'oqchil hududlarda joylashgan dunyodagi 60 foizdan ortiqroq mamlakatlar juda izchil shug'ullanmoqdalar. Juhon sog'liqni saqlash tashkilotining bergen ma'lumotiga ko'ra dunyodagi barcha kasalliklarning 80 foizidan ortiqroq'i suv muammolari bilan bog'liqdir. Shuning o'zi ham suv ta'minoti masalasi hozirgi kunda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatuvchi holatdir. Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan 2000-2010 yillarni aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash o'n yilligi va 22 mart kunini Xalqaro suv kuni deb e'lon qilinishi masalaning jahon miqyosida naqadar dolzarbligini ko'rsatadi. Jumladan hozirgi kunda O'zbekiston respublikasida shaxar aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 91% va qishloq aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi esa 64 % ni tashkil etadi. Mazkur va uta muxim sohadagi holatni yaxshilash boo'yicha respublikada 2012-2020 yillarga muljallangan strategiya ishlab chiqilshgan bo'lib unga asosan shaxar va qishloq aholisining ichimlik suvi bilan ta'minoanganlik darajasini 2020 yilga borib mos ravishda 100 va 85 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Aholi va ishlab

chiqarishni zarusi miqdordagi va talab darajasidagi suv bilan o'z vaqtida ta'minlash mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishishida alohida o'rinni tutadi. Ushbu darslikning asosiy vazifasi suv xo'jaligining mazkur muhim tarmog'i bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarga zaruriy nazariy bilim olishlari va ishlab chiqarishda yuqori natijalarga erishishlarida ko'maklashishdir. Suv ta'minoti turli xildagi iste'molchilarini uzluksiz ravishda talab darajasidagi miqdor va sifatga ega bo'lgan suv bilan ta'minlashga qaratilgan tarbirlar majmuasidir.

Birinchi darajadagi va birinchi navbatda kerakli miqdorda sifatli suv bilan ta'minlanishi shart bo'lgan iste'molchi aholi hisoblanadi. Jahonda suv iste'moli miqdori borgan sari o'sib bormoqda. Jumladan 1950 yildan 1990 yilgacha suv iste'moli 2-2.5 baravar o'sib 300 km³ni tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi vaqtida yer sharida yiliga ichimlik maqsadida iste'mol qilinayotgan suv miqdori 500 km³ga yaqinlashdi. Aholining soni 6 milliarddan ortib (ulardan 1,5 milliardga yaqini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan), bir minutlik suv iste'moli 5 ming m³ni tashkil etmoqda, Yer sharining (510 mln.kv.km) faqat 30% ga yaqinini quruqlik, qolgan (361 mln.kv.km dan ko'proq) qismini esa dunyo okeani tashkil etadi. Yer sharida mavjud bo'lgan suvlarning (1459 mln.km³) atigi 0.280 mln.km³gina daryo va chuchuk ko'llarga tegishlidir. Yer sathidan 5 km chuqurlikgacha bo'lgan qatlamlardagi yer osti suvlarining umumiyyeti miqdori 60 mln km³tashkil etib, ularning o'rtacha sho'rligi 0-250 g/l ni tashkil etadi. Respublikada barpo qilingan aksariyat suv xo'jaligi infratuzilma obyektlarining xizmat ko'rsatish muddati 50-60 yildan ortib, ularning texnik holati yildan-yilgan yomonlashmoqda. Xususan, irrigatsiya tizimi kanallarining 66 foiz qismi tuproq o'zanli bo'lib, suvning filtratsiya hisobiga yo'qolishi yuqoriligidcha qolmoqda. Bundan tashqari, 77 foiz irrigatsiya tizimi kanallari ta'mirlash va tiklashni, 20 foiz qismi esa rekonstruksiya qilishni talab etadi. Suv iste'molchilarini uyushmalari va fermer xo'jaliklarining 77 foiz sug'orish tarmog'i tuproq o'zanli bo'lib, 44 foiz tarmoq ta'mirlash va tiklashga, 10 foiz tarmoq esa rekonstruksiya qilishga muhtoj. Mavjud lotok tarmoqlarining asosiy qismi 30 yildan ziyod xizmat ko'rsatib ularni o'z vaqtida ta'mirlash ishlari amalga oshirilmaganligi, shuningdek, xizmat muddatlarini o'tib ketganligi natijasida ularning 70 foizi rekonstruksiya qilish va almashtirishni talab qiladi. Suv iste'molchilarining suv olish joylari esa aksariyat holda suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlanmagan. Natijada irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti o'rtacha 0,63, bir qator hududlarda esa undan ham past bo'lib, asosiy manbalardan olinadigan suvning 35-40 foizi sug'orish tarmoqlarida yo'qotilmoqda. Suv xo'jaligi tashkilotlari hisobidagi 1 687 ta nasos stansiyalarining 74 foizi 30 yildan, 20 foizi 20 yildan, 6 foizi 10 yildan ortiq xizmat qilmoqda yoki 94 foiz nasos stansiyalarini normativ xizmat muddatini (16-18 yil) o'tab bo'lib, ularni modernizatsiya qilish va almashtirish, jami 2 887 km bosimli quvurlarning 10,3 foiz qismi esa birinchi navbatda almashtirishni talab etib, oqibatda ularni ishlatishda avariya holatlari ko'plab kuzatilmoqda, shuningdek,

elektr energiyasi sarfi yuqoriligicha qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan kospensiyasi tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзакаримова Г. М. Қ. Муродилов ХТҮ Понятие о бонитировке балла почв и её главное предназначение //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 223-229.
2. Ganiyev Y. Y., Qosimov L. M., Murodilov K. T. CREATING AGRICULTURAL MAPS USING GEO-INFORMATION SYSTEMS AS AN EXAMPLE OF BANDIKHAN DISTRICT //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 1132-1140.
3. Murodilov K. T., Alisherov S. M. WEB CARTOGRAPHY AT THE CURRENT STAGE OF DEVELOPMENT OF GEOINFORMATION RESOURCES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 166-171.
4. Toshmatov U. Q., Murodilov K. T. CREATING MAPS OF AGRICULTURE AND CLUSTERS BY USING GEOINFORMATION SYSTEMS //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 464-470.
5. Murodilov K. T., Muminov I. I. THEORY OF CREATING CLUSTER MONITORING WEB MAPS USING GEOINFORMATION SYSTEMS //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 1430-1436.
6. Murodilov K. T., Toshmatov U. Q. CREATING MAPS OF AGRICULTURE AND CLUSTERS BY USING GEOINFORMATION SYSTEMS. Innovative Development in Educational Activities, 2 (6), 464–470. – 2023.
7. O'G'Lи M. H. T. Market transformation for sustainable rural housing //Достижения науки и образования. – 2019. – №. 7 (48). – С. 30-31.
8. Murodilov K. T. et al. USE OF GEO-INFORMATION SYSTEMS FOR MONITORING AND DEVELOPMENT OF THE BASIS OF WEB-MAPS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 685-689.
9. Mirzakarimova G. M., Murodilov K. T., Toshmatov U. Q. REMOTE SENSING DATA: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND APPLICATIONS //ITALY" ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES". – 2023. – Т. 14. – №. 1.
10. Murodilov K. T. et al. USE OF GEO-INFORMATION SYSTEMS FOR MONITORING AND DEVELOPMENT OF THE BASIS OF WEB-MAPS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 685-689.

11. oғli Jasurbek N. O., Murodilov K. T. HISTORY OF CREATION OF WEB CARDS AND CURRENT PROSPECTS: PROBLEMS AND SOLUTIONS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 184-186.
12. Murodilov K. T. et al. IMPROVING THE METHODS OF PROVIDING GEO- INFORMATION FOR THE MONITORING OF TERRITORIES AND DEVELOPING THE BASIS OF WEB-MAPS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 695-701.
13. Murodilov K. T., Muminov I. I. THEORY OF CREATING CLUSTER MONITORING WEB MAPS USING GEOINFORMATION SYSTEMS //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 1430-1436.
14. oғli Jasurbek N. O., Murodilov K. T. HISTORY OF CREATION OF WEB CARDS AND CURRENT PROSPECTS: PROBLEMS AND SOLUTIONS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 184-186.
15. qizi Abdullayeva G. V., ugli Murodilov K. T. PROVIDING GEO- INFORMATION FOR THE MONITORING OF THE CLUSTER ACTIVITY OF THE REGIONS AND DEVELOPING THE BASIS OF WEB-MAPS (IN THE CASE OF FERGANA REGION) //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 342-347.
16. Murodilov K. T., Muminov I. I., Abdumalikov R. R. PROSPECTS OF PEDAGOGICAL SKILLS IN CADASTRAL SCIENCES //JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 12-16.
17. Khakimova K. R., Murodilov K. T. MODERN METHODS OF MANAGING GEODESY, CARTOGRAPHY // "ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION. – 2023. – T. 10. – №. 1.
18. Murodilov K. T., Muminov I. I., Abdumalikov R. R. DESIGN PRINCIPLES FOR EFFECTIVE WEB MAPS //SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH". – 2023. – T. 14. – №. 1.
19. Salimjon o'g Y. A. et al. IMPROVEMENT OF METHODS OF GEOLOCATION MAP FOR MONITORING OF CLUSTER ACTIVITY OF REGIONS AND DEVELOPMENT OF THE BASIS OF WEB CARDS // "RUSSIAN" ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. – 2023. – T. 9. – №. 1.
20. Ganiyev Y. Y., Murodilov K. T., Mirzaakhmedov S. S. EVALUATING THE PRECISION OF GOOGLE MAPS IN COUNTRYSIDE REGIONS //ITALY" ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES". – 2023. – T. 14. – №. 1.

21. Tolibjon o'g'li M. K. et al. MONITORING OF AREA THROUGH TACHEOMETER AND DESIGNING IN AUTOCAD SOFTWARE //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 27. – №. 1. – С. 13-20.

22. Murodilov K. T., Yo'Idoshaliyev A. S. ANALYZING PUBLIC TRANSPORTATION ACCESSIBILITY THROUGH INTERACTIVE WEB MAPS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 112-114.

